OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA MEXANIZMLARI

Isroil Sobirov
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universeteti tadqiqotchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24092226

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 2025-yil 21-fevral kuni Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma’muriy sektorlarning 2024yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishida harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish”, milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy-ma’muriy sektorlar va mudofaa sanoati faoliyati samaradorligini oshirishni belgilab berdi.

Prezidentimiz takidlaganidek, globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani, “Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur” . Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimiz tarixiga va ma’naviy qadriyatlariga yuksak hurmat tuyg‘usini shakllantirish, “Vatan himoyasiga, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta’minlashga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o‘tashga tayyorlash maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda”.

Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan” .

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi alohida ta’kidlab o‘tilib”, “targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish muhim yo‘nalish sifatida belgilab berildi”. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi so‘zlangan ma’ruzasida quyidagi fikrlar ta’kidlanadi”: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir.

Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerakligi ta’kidlanadi”. “Ushbu murojaatnomada eng avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim deb alohida urg‘u berilganligi bejiz emas” .

“Modomiki, ta’lim tizimining markazida inson kapitali, uni to‘g‘ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo‘naltirish turar ekan, bunda maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta’lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta’limning to‘liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardandir” .

Keyingi yillarda “yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko‘zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko‘zdan kechirishni taqozo etmoqda. Yangi asr jahon ta’lim tizimlari, jumladan, ta’lim tizimidagi global o‘zgarishlar bilan ajralib turdi” . “Bu, o‘z navbatida, oliy harbiy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash uchun qo‘llaniladigan yangi pedagogik yondashuvlarni paydo bo‘lishini belgilab berdi” .

Axborot jamiyatida kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun oliy harbiy ta’lim muassasasi bitiruvchilari doimo o‘zgarib turadigan tinchlik va jangovar sharoitlarda o‘z maqsadiga muvofiq harakat qilishga tayyor bo‘lishi kerak . Ular mutaxassislar o‘rtasida madaniyatlararo muloqotda zarur bo‘ladigan, rivojlangan qobiliyatlarga ega, professional jihatdan malakali, raqobatbardosh harbiy xizmatchilar bo‘lishi zarur. “Bu vazifalarni amalga oshirish uchun oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qitishga kompetensiyaviy yondashuv keng joriy etila boshlandi, bu o‘qituvchilardan ta’lim standartlariga muvofiq mutaxassislar tayyorlashning nazariy va uslubiy asoslarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi” .

Kursantlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bu jarayonni muvaffaqiyatli bo‘lishi kursantning o‘ziga xos shaxsiy qobiliyatlari rivojlanganligi hamda undan katta ma’suliyat talab qiladi.

Ko‘plab tadqiqotlarda maxsus ko‘nikmalar tushunchasi qo‘llaniladi, ushbu tushuncha bilimlar, malakalardan xabardorlikni bildirib, bu jarayonda kursantdan o‘ziga ishonch, hissiy muvozanat, ustunlik, stressga chidamlilik, ijodkorlik, yutuqqa intilish, ishbilarmonlik ruhi, mas’uliyat, vazifani bajarishda ishonchlilik, ijtimoiylashganlik kabi hislatlarini namoyon etish talab qilinadi. Kursantlarni ko‘p funksiyali faoliyatga tayyorlash nafaqat ularni kasbiy rivojlantirishni, shu jumladan ularning umummadaniy kompetentligini rivojlantirishni talab qiladi [83, 88], ushbu kompetentlik rivoji ham oliy harbiy ta’lim natijasida ro‘y beradi. Bugungi kunda yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayoni hamda tizimi jiddiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Misol uchun, hozirgi sharoitlarda ta’limning uzluksizligi, ta’lim va tarbiya jarayonining texnologizatsiyalashayotganligi va raqamli texnologiyalarni tizimli qo‘llashda bu jarayonlarga kompetensiyaviy yondashuv shartlarida ishlashga to‘g‘ri kelmoqda. Bunday vaziyatda butun e’tibor ta’limning kasbga oid jihatlariga, kursantlar tomonidan kasbga oid umummadaniy kompetentlikni o‘zlashtirilish masalasiga qaratiladi.

Bunda shu narsani alohida ta'kidlashimiz lozimki, umummadaniy kompetentliksiz kursant haqiqiy kasb egasi sifatida shakllana olmaydi. Ayni shu holat kursantlarda umumadaniy kompetentlikni rivojlantirish masalasi dolzarbligini belgilab beradi. Umummadaniy kompetentlikni rivojlanganligi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga yanada turtki beradi. "Oliy harbiy ta'lim muassasalarining asosiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda nafaqat kursantning kasbiy tayyorgarligiga, balki uning shaxsiy fazilatlariga ham e'tibor qaratish kerak.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risidagi qonuni ta'lim muassasalariga ta'lim mazmunini muvofiqlashtirish erkinligini, o'quv-uslubiy ta'minot va ta'lim texnologiyalarini tanlash erkinligini beradi".

Oliy harbiy ta'lim muassasi kursantining malakasi nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi, balki u o'z bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay bilish , "kasbiy va ijtimoiy sohalarda o'z tajribasi va shaxsiy fazilatlarini ishlata olish qobiliyati va bunga tayyorligi, bajarilgan ishlar va ularning faoliyati natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish ko'nikmasi bilan belgilanadi". Yaxshi tayyorlangan mutaxassis o'zini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini tushunadi, u harbiy xizmatda raqobatbardosh bo'la olishi va ijtimoiy hamda kasbiy harakatchanlikka, o'z kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirib borishga tayyor bo'lishi kerak.

Kursantning tayyorgarlik darajasini kompetentlikga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, bu yondashuvga muvofiq kursantning ilgari olgan bilimlari asosida kutulmaganda berilgan vazifalar va shaxsiy darajadagi muammolarni hal etish borasida mustaqilligi darajasi bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu yondashuv urg'usi ma'lum bir vaziyatda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash qobiliyatiga, kursantning o'z faoliyatida kasbiy va umummadaniy kompetentlikni qanday birlashtirishiga qaratiladi. Biroq, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantini biz nafaqat tor kasbiy sohada, balki ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar hamda munosabatlarning murakkab ko'p qirrali tizimida ham o'zini namoyon etishi zarurligiga qaratamiz

Jamiyat, "oliy ma'lumot olayotgan harbiy xizmatchini birinchi navbatda, yuksak madaniyat egasi, ushbu madaniyat eltuvchisi, shakllangan axloqiy qadriyatlar tizimiga, fuqarolik fazilatlariga va faol hayotiy pozitsiyasiga ega inson sifatida ko'radi". Shuning uchun oliy ta'limning davlat ta'lim standarti nafaqat kasbiy, balki umummadaniy kompetentlikni ham qamrab olishi zarur. Bu jarayon turli fan sohalariga oid adabiyotlarning nazariy tahlili, nazariy va empirik metodlar tatbiqi natijalari, kursantlarning shaxsiy xususiyatlaridagi statistik ishonchli o'zgarishlarning hisobga olib borilishi hamda ushbu tadqiqotlar natijalarining kasbiy tayyorlash jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi. Kursantlarda umummadaniy kompetentlikni rivojlanish dinamikasini monitoring qilish va tahlil qilish falsafiy, psixologik va pedagogik manbalarni nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilish bizga ushbu tadqiqotlar hamda adabiyotlarda umummadaniy kompetentlikni muammosini o'rganishga nisbatan turli yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotimiz davomida biz o'z oldimizga "kasbiy kompetentlikni tushunchasining mazmunli tavsifi va uning asosiy tarkibiy qismlari aniqlashtirish; kursantlarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning tarkibiy-funktsional modelini nazariy jihatdan ishlab chiqish va eksperimental sinovdan o'tkazish; kursantlar o'rtasida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini tashkiliypedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish"; kursantlar o'rtasida umummadaniy kompetentlikni o'tkazish jarayoni samaradorligi mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash; kursantlar o'rtasida umummadaniy kompetentlikni pedagogik shartlarini aniqlashtirish

vazifalarini qo‘ydik. Turli tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik turlicha ta’riflanadi. Shu, jumladan, kasbiy kompetentlik sifatida “kasbiy bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini” belgilaydi. “Tadqiqotchilar orasida kasbiy kompetensiyani xodimning o‘z ishini lavozim talablariga muvofiq bajarishi, lavozim talablari esa u tegishli bo‘lgan tashkilot yoki sohada qabul qilingan vazifa hamda standartlar sifatida talqin qiluvchilar ham uchraydi” .

Tadqiqotchilar G.B. Andreyeva va O.A. Nikitina atamaga quyidacha ta’rif berishadi: “kasbiy kompetensiya, subyektning faoliyat predmetidan to‘laqonli xabardorligi sifatida ikki xil jihat yoki ikki xil ma’noga ega. Kasbiy kompetensiya tor ma’noda (konkret faoliyat turiga nisbatan) o‘z tarkibiga bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, ularning shaxs muloqoti, faoliyati va o‘z-o‘zini rivojlantirishda qo‘lllanilishini o‘z ichiga qamrab oladi. Keng ma’noda kasbiy kompetensiya ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlar muvaffaqiyat darajasini qamrab oladi”. Ba’zi tadqiqotlarda “maxsus kompetensiya” atamasi ham qo‘llaniladi, ushbu atama mustaqil birlik sifatida, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ta’riflansa, ba’zi tadqiqotlarda bu atamaga umuman e’tibor qaratilmaydi.

Kursantlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshishi o‘ziga xos shaxsiy qobiliyatlari rivojlanganligiga bevosita bog‘liqdir. Ko‘plab tadqiqotlarda kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bog‘liqlikda maxsus ko‘nikmalar (hard skills) atamasi qo‘llaniladi. Mazkur atama bilimlar, malakalardan xabardorlikni bildirib, kursantdan o‘ziga ishonch, hissiy muvozanat, ustunlik, stressga chidamlilik, ijodkorlik, yutuqqa intilish, ishbilarmonlik ruhi, mas’uliyat, vazifani bajarishda ishonchlilik, ijtimoiylashganlik kabi sifatlarni namoyon etishni talab qiladi. Kursantlarning kasbiy kompetentligi– “bu uning ijtimoiy-kasbiy rivojlanish darajasini, bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni amalga oshirish yo‘lini, shuningdek, ma’naviy qadriyatlari (g‘oyalar, e’tiqodlar) yig‘indisini tavsiflovchi tizimli sifatdir, axloqiy tamoyillar va qarashlar, muloqot madaniyati, kasbiy faoliyatda yorqin namoyon bo‘ladi” . Kursantlarda “ kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va uning harbiy xizmat faoliyatiga muvaffaqiyatli ta’siri muammosini ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati quyidagi holatlar bilan shartlanadi: ta’lim, shu jumladan, harbiy ta’lim nafaqat pedagogik, balki madaniy-tarixiy kategoriya sifatida qaralishi lozim; fundamental fanlar umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi; ommaviy ta’lim shiddat bilan rivojlanayotgan ilmiy izlanishlardan, ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotiga ta’sirining turli jihatlarini aks ettirishda ortda qolmoqda”. Kursantning qadriyatli yo‘nalganligi uning axloqiy, estetik meyorlar, xalq an’analari va boshqalarni o‘zlashtirishi orqali, ya’ni uni madaniyatga “oshno etish”, madaniy voqelik bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, umummadaniy kompetentsiya dunyoning ilmiy manzarasi haqida tasavvurlar, ma’naviy va madaniy hordiq chiqarish ko‘nikmasi, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati, madaniy aloqa ko‘nikmalari kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Umummadaniy kompetentlik tayanch kompetensiyalar asosida shakllanadi va ular ta’lim mazmunining meta-fan darajasiga taalluqlidir. Shuning uchun umummadaniy kompetentsiyalarni rivojlantirish fanlararo aloqadorlik doirasida amalga oshiriladi.

S.L.Troyanskayaning umummadaniy kompetentlikni ta’lim oluvchi shaxsining madaniy makonni o‘zlashtirish tajribasi, ta’lim olganlik, tarbiyalanganlik va rivojlanish darajasi, bilishga, dunyoqarashga oid, hayotiy xarakterdagi muammolarni hal etish madaniy etalonlarda baholash mezonlari sifatida foydalanishga yo‘nalganlik bilan shartlangan integral qobiliyati ekanligi haqidagi fikrlariga qo‘shilgan holda tadqiqot doirasida mazkur tushunchaga quiyidagi tarzda mualliflik ta’rifi berildi: “Umummadaniy kompetentlik – bu jahon hamda milliy madaniy

makoniga kirib borish, ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik, amaliy faoliyatda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashda madaniy etalonlarni baho mezoni sifatida bilish bilan shartlanadigan, nutq odob-axloqi va adabiy til normalarini, shuningdek, millatlararo muloqot madaniyatini va jamiyatda harakat qilish qobiliyatini ta’minlaydigan shaxsning integral sifatidir”.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, xususan, Rossiya Federatsiyada takomillashtirilgan yangi ta’lim standartlariga muvofiq umummadaniy kompetentlik asosiy va universal kompetentsiya hisoblanib, u yaxlit shaklda jamiyatning zamonaviy ta’lim tizimiga qo‘yadigan talablarini aks ettiradi. “Umummadaniy kompetentlik oliy harbiy ta’lim muassasasi kursantiga o‘z faoliyatining har bir jabhasida intiluvchan, talabchan va muvaffaqiyatli bo‘lish imkonini beradi va o‘z tarkibiga yangi o‘quv materialini o‘rganish, milliy madaniyatimiz va turli xil madaniyatlar mazmunidan, ularning o‘ziga xosliklaridan xabardorlikni qamrab oladi”. Bizning fikrimizcha, bu kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyatining yangi uslubini rivojlantirishida, uning kasbiy burchi, vazifa hamda majburiyatlari va xizmat burchini bajarishi uchun ishonchli asos bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, kasbiy kompetentlik umummadaniy intellektini rivojlantirishga yordam beradi, shuning uchun biz umummadaniy kompetentlikni kasbiy iste’dod va muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining zaruriy sharti deb hisoblaymiz. Albatta, umummadaniy kompetensiya murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p bosqichli tuzilishga ega. Uning ahamiyati va zarurati ushbu tuzilma tarkibida shaxsning kasbiy yo‘nalishi va kasbiy moslashuvchanligini belgilovchi motivlar manbai sifatida xizmat qiluvchi tarkibiy qism mavjudligi bilan ham belgilanadi, ushbu kompetensiya kasbiy kompetentsiya bilan birgalikda (uning bir qismi sifatida) inson shaxsiyatining jamiyat uchun ahamiyatli, doimiy ajralmas xususiyati hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon taraqqiyotining globallashuvi sharoitida shaxs o‘zining hayotiy tajribasidan xabardor bo‘lishi va o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘lini izlashi zarur. “Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan va rivojlangan axborot jamiyatida shaxsning o‘zini namoyon qilishi, fikrlash ijodkorligi, qobiliyatlarini rivojlantirishi va imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish, shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashi, o‘zini o‘zi anglashi va o‘zini namoyon qilish talabi birinchi o‘ringa chiqadi”. Bizning fikrimizcha, kursantlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi ularning o‘quv va kasbiy faoliyatda o‘zlarining potentsial qobiliyatlarini va o‘zi-o‘zini anglash imkoniyatlarini aniqlashi va rivojlantirishi muammosi bilan chambarchas bog‘liq.

Kursantlarda kasbiy kompetentlik barcha fanlarni o‘rganish jarayonida shakllanadi. “Fanlarni o‘rganish jarayonida kursantlar ko‘zlangan maqsadga jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti haqida ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish; shaxsiy va professional muloqot sohasida boshqalar bilan o‘zaro munosabat ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘z diniy, milliy, madaniy, kasbiy o‘zligini to‘g‘ri namoyon qilishi ko‘nikmalarini takomillashtirishi; bo‘lajak kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushunishi; doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi bilan natijaga erishadi”.

Mamlakatimiz oliy harbiy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Ularning muvaffaqiyatli tatbiqi umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning zarur darajasini ta’minlaydi. Biz kursantlarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik jihati batafsil o‘rganishni talab qiladi deb hisoblaymiz, chunki kursantlarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘z-o‘zini namoyon qila bilish qobiliyatini rivojlantirish bevosita ularga ta’lim va tarbiya berish jarayonida amalga oshiriladi. Yurtimizda tarixiy ideallar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda umumadaniy kompetentlikni rivojlantirish, nofilologik ta’lim yo‘nalishlari talabalarida umummadaniy kompetentlikni takomillashtirish borasida tadqiqotlar

amalga oshirilgan. Ammo oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida umumadaniy kompetentlikni rivojlantirish muammosi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham kam o‘rganilgan muammolardan biridir.

Muammoning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligi dissertatsiya tadqiqoti mavzusini “Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari” sifatida tanlashimizni belgilab berdi: shubhasiz kasbiy faoliyatning sifat xususiyatlarini aks ettiruvchi asosiy tushuncha “umummadaniy kompetentlik tushunchasidir”. Biroq, aksariyat adabiyotlar faqat mutaxassis kasbiy madaniyatining ayrim turlarini (pedagogik madaniyat, huquqiy, boshqaruv, iqtisodiy va boshq.) ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olmagan holda o‘rganadi.

Shu bilan birga, oliy harbiy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, kursantlarda umummadaniy kompetentlikni tuzilishi va uning rivojlanish xususiyatlari haqida yaxlit tushuncha mavjud emas. N.A. Muslimovning fikricha, kasbiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyati muayyan turlariga xos bo‘lgan umumiylikni aks ettiradi va ularga nisbatan shaxs uchun umumiylik sifatida harakat qiladi. Bular o‘z sohasini chuqur bilish, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi bo‘lib, ayni xususiyatlar rivojlantirilishi masalasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi . Binobarin, umummadaniy kompetentlik kasbiy kompetentlikdan farqlanadi va u o‘z tarkibiga hissiy-motivatsion, qadriyatli-yo‘naltiruvchi, kognitiv va xulqatvor komponentini qamrab oladi. Shu bilan birga alohida qayd etib o‘tishimiz lozim-ki, oliy harbiy ta’lim muassasalarida bilimga yo‘naltirilgan yondashuv hali ham hukmronlik qilmoqda, uning asosiy baholash mezoni kursantning kasbiy ma’lumotlarini hajmi va umumiyligi hisoblanadi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini kasbga tayyorlashda kompetentlikka asoslangan yondashuv ham muhim ahamiyatga ega, ushbu yondashuv umummadaniy bilimlarga ega bo‘lish ham kursantlarni kasbga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi, shu bilan birga asosiy urg’uni kompetentlik (bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay bilish) va uning kasbiy faoliyatda shakllanish darajasi e’tibordan chetda qolmaydi. “Kursantlar hamda oliy harbiy ta’lim muassasalarini tugallagan harbiy ofitserlar faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘z vazifalarini professional tarzda bajarishni biladigan, o‘quv faoliyati jarayonida o‘zaro hurmat va bir-birini qabul qilishni biladigan, o‘z-o‘zini rivojlantirish va aks ettirishga intiladigan mutaxassisgina bugungi kunning talabga javob bera oladi”. Kursantlarning katta qismida psixologik barqarorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ta’lim olishda, ta’lim natijalarini qo‘llashda ijodkorlik mavjud emas. Zamonaviy oliy harbiy ta’lim muassasasi kursanti psixologik-pedagogik bilimga ega, qo‘l ostidagilarni tayyorlash va tarbiyalash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida “ko‘pchilik bitiruvchilarning umummadaniy kompetentlik darajasi ular hal qiladigan rasmiy vazifalarning murakkablik darajasiga mos kelmaydi va ularning mazmuni, rivojlangan darajasini baholash mezonlari o‘quv jarayonini tashkil etuvchi mutaxassislar tomonidan o‘quv jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda alohida aks ettirilmagan.

Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar davrida harbiy kadrlarning o‘rni va vazifalari tubdan o‘zgarib, ularga qo‘yiladigan talablar sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda. Professional armiyaga o‘tish davrida jamiyatning ijtimoiy tartibi tashabbuskorlik, “mehnatsevarlik, harbiy jamoani boshqarish va unga bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini samarali tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali ofitserlarni tayyorlash shartdir”.

Mazkur buyruqni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy kadrlarini kasbiy tayyorlash tizimi doirasida, umuman, respublika oliy harbiy ta’lim muassasalarining boy tajribasi va an’analariga asoslangan

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alekseyev S.S. Grajdaninom byt obyazan: Osnovы pravovых znaniy dlya yunoshestva. Sverdlovsk: Sred.-Ural. kn. id-vo. 1985. - 174 s.
2. Bondarevskaya Ye.V. Gumanitarnaya paradigma lichnostno oriyentirovannogo obrazovaniya // Pedagogika. – 1997. - № 4. – S.11-14.
3. Zimnyaya I.A. Klyuchevые kompetensii –novaya paradigma rezultata obrazovaniya // I.A.Zimnyaya. Vыssheye obrazovaniye segodnya. - 2003. - № 5. –S. 34–39.
4. Islamov Z.M. Obщestvo, gosudarstvo i pravo. - T.:Adolat.1997.-24 s.
5. Karimova O., G'affarov Z. Davlat va huquq asoslari / Ped.oliy o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari, liseylar va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchun darslik. – T.: “O'qituvchi”, 1995. – 607 b.
6. Kurbanov Sh.E., Seytxalilov E.A. Nasionalnaya model i programma po podgotovke kadrov – dostijeniye i rezultat nezavisimosti Uzbekistana. – T.: Ma'rifat-Madadkor, 2001. – 655 s.